



**MAXSUS TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Surdopedagogika va inklyuziv ta'lim kafedrası  
professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)  
Dilobar Batirovna Yakubjanova*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233251>

**Annotatsiya;** Mazkur maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimi, imkoniyati cheklangan bolalarning maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim jarayonlarini jadallashtirish hamda FM tizimi (Frequency-Modulated system) ning eshishda muammosi bo'lgan o'quvchilar ta'limiga samarasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar;** Maxsus ta'lim, innovatsiya, imkoniyati cheklanganlik, FM tizimi (Frequency-Modulated system), ixtisoslashtirilgan maxsus- maktab internati.

Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, 2022 — 2026-yillarda “Maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi qaror qabul qilinib unga muvofiq ravishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim jarayonlarini jadallashtirish ham alohida belgilab qo'yilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning pedagog kadrlari va mutaxassislari salohiyatini oshirish.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish masalalari bo'yicha otanalar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Brayl yozuvidagi kitob (badiiy adabiyot, darslik, o'quv qo'llanma)larni tayyorlash va chop etish bilan bog'liq barcha uskuna va jihozlar, Brayl shriftidan foydalanish uchun mo'ljallangan qog'oz mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda bojxona to'lovlaridan ozod etish hamda Brayl yozuvidagi kitob (badiiy adabiyot, darslik, o'quv qo'llanma)larni chop etish bilan shug'ullanadigan nashriyotlarga soliq imtiyozlarini taqdim etish masalasi bo'yicha tegishli takliflarni ishlab chiqish uchun ishchi guruh shakllantirish kabi vazifalar ham o'z o'rnida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” qonuniga muvofiq Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

“Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarorga asosan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi bolalar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilinishi belgilab qo'yilgan.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ularning ixtisoslashuviga muvofiq quyidagi (I — VIII) turlarga bo'linadi:

- I — kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab-internatlar;
- II — zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;
- III — ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar;
- IV — zaif ko'radigan va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar;
- V — nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;
- VI — tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;



VII — psixik rivojlanishi sust bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VIII — aqli zaif bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlar.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘ziga xos ixtisoslikka asosan kadrlar bilan to‘ldiriladi va o‘quvchilar bilan tegishli ta’limiy-tarbiyaviy, korreksion vaziflar belgilar olinadi.

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda iknlyuziv guruhga ega bo‘lgan Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu muassasalarning har birida alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning rivojlanishi uchun tegishli va mos ravishda ishlab chiqilgan dastur asosida ta’lim- tarbiya jarayoni olib boriladi.

Maxsus ta’lim tizimiga ham zamonaviy texnologiyalar va qurilmalarning kirib kelishi o‘quvchi va kichik yoshdagi bolalar uchun yuqori samarali natijaga erishishga dasturil amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Zamin fondi tomonidan Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari o‘quvchilariga berilgan FM (Frequency-Modulated system) qurilmasi ham o‘quvchilarning samarali ta’lim tizimiga yordam bermoqda.

FM tizimi (Frequency-Modulated system) — bu eshitish qobiliyati past bo‘lgan odamlarga yordam berish uchun mo‘ljallangan radio-tovush tizimi. U asosan muhit shovqinini kamaytirib, ma’ruzachi (yoki suhbatdosh) tovushini to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitish qurilmasiga uzatadi. Bu texnologiya ayniqsa maktablar, ma’ruzalar yoki keng maydonlarda foydali bo‘ladi.

FM tizimi (Frequency-Modulated system) ning ishlashi quyidagicha;

1. Ma’ruzachi mikrofonidan ovoz yoki tovush FM radio to‘lqinlari orqali qabul qilgichga uzatiladi.

2. Qabul qilgich (eshitish qurilmasiga ulanadi) tovushni qayta ishlab, foydalanuvchining qulog‘iga aniq va shovqinsiz etkazadi.

3. Tizim 20-30 metr masofagacha samarali ishlaydi va dinamik muhitlarda (masalan, sinf xonalari) ideal yechim hisoblanadi.

Samarali jihatlari;

- Ovozni shovqinsiz eshitish,

- Diqqatni jamlashga yordam beradi.

- Bolalar va talabalar uchun ta’lim jarayonini osonlashtiradi.

FM-tizim kerakli tovushlarni bevosita o‘quvchining eshitish apparatlariga uzatayotgani tufayli bolalar o‘qituvchining gapini eshitadilar va nutqni sinfda ham, shaxsiy darslarda ham rivojlantiradi.

**Xulosa** o‘rnida aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta’lim texnologiyalari alohida yordamga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni rivojlanishida, o‘quv dasturini bolalarga yanada tushunarli yetkazib berishda, bolalarning diqqatini jamlash, tafakkurini rivojlantirishda, umuman olganda intellektual faoliyatining ortib borishida, hamda alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning ommaviy maktab va maktabgacha ta’lim tizimiga integratsiya qilinishida yuqori natijalarga erishishni ko‘zda tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.H.Kalbayeva, D.Yakubjanova. Matematika. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 3 - sinf darsligi. Tuzatilgan va to‘ldirilgan uchinchi nashri. – T.: “Niso Poligraf”, 2019. – 176 b. 18.

2. H.Kalbayeva, D.Yakubjanova. Matematika: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining 4 - sinf darsligi. – T.: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – 192 b. 68 19.

3.D.Yakubjanova, H.Kalbayeva, D.Rahimova, M.Muhamedova. Matematika 5 – sinf: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlarning 5 - sinf darsligi. Uchinchi nashri. – T.: “Niso Poligraf”, 2020. – 192 b. 20.

4. Якубжанова Д.Б. Эшитишида муаммолари бўлган бошланғич синф ўқувчиларига математикани ўқитишда ахборот технологиялардан фойдаланиш // Махсус педагогларни тайёрлаш истиқболлари: касбий компетенцияларни ривожлантириш ва қўшимча таълим ва



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАРАҚҚИЙОТИ, МУАММО YECHIM VA  
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel  
2025-yil



ижтимоий мослашиш масалалари. Республика миқёсидаги илмий-амалий  
конференция материаллари. – Тошкент, 2020. – Б. 26-29. 21.